

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ
DAVLAT UNIVERSITETI**

ILHOM KAZAKOV

**PEDAGOGIK AMALIYOT
MAS‘ULIYATI
(Uslubiy qo‘llanma)**

TOSHKENT - 2015

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Ilmiy Kengashida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

Ushbu uslubiy qo'llanma ta'lim muassasalarida talabalar pedagogik amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq jihatlariga qaratilgan bo'lib, undagi har bir masala «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyoti haqida»gi Nizomga muvofiq tarzda yoritilgan. Qo'llanmada pedagogik amaliyotning maqsadi, amaliyotga qo'yiladigan talablar, uni tashkil etish, o'quv va tarbiyaviy ishlar tavsifi, amaliyot davomida guruh rahbarining, uslubiyatchi o'qituvchilarning vazifalari, amaliyotchilarning hamda sinf rahbarining majburiyatlari, amaliyotning nofaol va faol davrida amaliyotchilar amalga oshirishi lozim bo'lgan ishlar, yakuniy bosqichda ulardan talab qilinadigan hujjatlar borasida ma'lumotlar umumlashtirilgan va uslubiy tavsiyalar berilgan.

Risola oliy ta'lim muassasalarining 5120100 – filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi talabalari, pedagogik amaliyot rahbarlari hamda akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, umumta'lim maktablari o'qituvchilariga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: F.Bobojonov, QQDU, f.f.n., dotsent

Taqrizchilar: Sh.Abdullayev, QQDU, f.f.n., dotsent
Sh.Yuldasheva, Nukus DPI, p.f.n., dotsent

SO‘ZBOSHI

O‘qituvchilik ancha mashaqqatli, ammo sharaflı kasblardan biri ekanligi hech kimga sir emas. Mohir muallim bo‘lib yetishishda, oliy dargohda o‘rgangan nazariy bilimlarni amalda tatbiq etishda talaba uchun pedagogik amaliyot katta imkoniyat maktabi hisoblanadi. Sohasining mutaxassisi sifatida o‘z fanini yanada chuqurroq o‘rganishda, pedagogik muloqot ustasi bo‘lishda, uslubiy bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallashda, davr talabiga javob beradigan darajadagi o‘qituvchi bo‘lib shakllanishda pedagogik amaliyotning o‘rni beqiyos.

Darhaqiqat, oliy ta‘lim muassasalarida o‘tkaziladigan pedagogik amaliyot ta‘lim tizimining eng muhim bosqichlaridan biridir. Ana shu davr mobaynida talaba tilshunoslik va adabiyotshunoslik, pedagogika va psixologiya fanlari doirasida olgan bilimlari asosida maktab, litsey yoki kollejlardagi ta‘lim-tarbiyaviy, o‘quv jarayonlari bilan bog‘liq faoliyatda bevosita ishtirok etishi natijasida pedagogik malaka va ko‘nikmalarni o‘zida shakllantira boradi, iqtidorini, qobiliyatini namoyish etadi.

Pedagogik amaliyot O‘zbekiston Respublikasi «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» talablariga mos tarzda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 1998-yil 30-oktabr kungi 305-sonli buyrug‘iga binoan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyoti haqida»gi Nizom asosida tashkil qilinadi va o‘tkaziladi.

Bo‘lajak o‘qituvchi, ya‘ni amaliyotchi talaba ta‘lim muassasalarida ona tili va adabiyot fanidan dars berish jarayonida o‘qituvchilik mahoratini egallay boradi. Zimmasiga yuklangan vazifalarni ado etish maqsadida ularni amalga oshirish yo‘llarini izlay boshlaydi, ta‘lim-tarbiyaviy ishlarni kuzatish va uni tahlil qila bilish, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil eta olish, o‘quvchilar ota-

onalari bilan farzandi tarbiyasiga doir muammolarni mustaqil hal qilish kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Talaba amaliyot davrida o'qituvchilik kasbining naqadar murakkab va mashaqqatli, lekin sharaflilik ekanligini yurakdan his qiladi, murabbiy uchun zarur kasbiy sifatlarga ega bo'ladi, har xil muammoli masalalarni bartaraf etish yo'llarini o'zi axtarib topadi, eng asosiysi, ixtisosligi bo'yicha mustaqil ravishda dastlabki darsni o'tadi, mustaqil mashg'ulotlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil qiladi. Buning uchun esa unga oliy ta'limda o'rgangan bilimlari asqotadi.

Respublikamiz ta'lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar, xususan, oliy ta'limni yanada takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar oliy ma'lumotli mutaxassislarni har jihatdan yetuk, o'z sohasining ziyrak bilimdoni qilib tayyorlash masalasiga qaratilgan. Demak, pedagogik amaliyot talabani bo'lg'usi kasbiy faoliyatga mukammal tayyorlashda, kelajakda sohasining mohir ustasi bo'lib shakllanishida muhim bosqich vazifasini o'tashi shubhasiz.

PEDAGOGIK AMALIYOTNING MAQSADI

Ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan talabalar pedagogik amaliyotidan ko'zlangan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

-talabalarning ona tili va adabiyotdan olgan nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, mustahkamlash va ularni amalda qo'llashga o'rgatish;

-talabalarda o'qituvchilik kasbiga qiziqish va muhabbatni shakllantirish;

-mustaqil va ijodiy ishlashga, ilg'or pedagogik tajribalarni muntazam o'rganishga, kasbiy faoliyatda ijodkor bo'lishga undash;

-o'quvchilarni talab darajasida o'qitish va tarbiyalash uchun zarur tayyorgarlik ko'rishga da'vat etish;

-davlat tilini talab darajasida o'rgatishlariga zamin hozirlash;

-mavzulararo, bo'limlararo, fanlararo bog'lanishlarga e'tibor qaratish lozimligini tushuntirish;

-dars jarayonida sheva ta'siriga berilmaslik zarurligini uqtirish;

-amaliyotchilarning o'zlariga biriktirilgan sinflarda mustaqil ravishda dars o'tishlariga erishish;

-bo'lajak ona tili va adabiyot fani o'qituvchisida sinf rahbariga xos kasbiy malaka va ko'nikma hosil qilish, pedagogik mahoratni shakllantirish;

-ta'lim muassasasidagi ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarining ilg'or tajribalarini o'rganishlari, ular tomonidan o'tilgan dars yuzasidan muhokama tashkil etishlari uchun imkoniyat yaratish;

-oliy o'quv yurti tizimida talabalarni o'quv jarayoni, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning muayyan ko'rinishlari bilan qurollantirish;

-kuchli demokratik huquqiy davlat qurish jarayonida mustaqil O'zbekiston Respublikasining taraqqiyoti talablariga javob bera oladigan bo'lajak o'qituvchining kasbiy sifatlarini qaror toptirish;

-o'quv-tarbiya ishlarini amalga oshirishga o'rgatish, o'qitish va tarbiyalash uslublarini o'zlashtirishning kasbiy malaka va ko'nikmalarini shakllantirish;

-talabalarining ijtimoiy, maxsus va psixologik-pedagogik fanlarni o'rganish jarayonida olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini yuzaga keltirish;

-talabalarda pedagogik faoliyatga ijodiy tadqiqotchilik nuqtayi nazaridan yondashish, muntazam ravishda o'z mehnati natijalarini tahlil qilish ko'nikmalarini vujudga keltirish;

-talabalarga pedagogik tajribalarni o'rgatish, ular o'z bilimini hamisha boyitib borishlari zarurligini uqtirish;

-ona tili va adabiyotdan darsni ilg'or, zamonaviy usullardan foydalangan holda o'tishlariga erishish;

-darsni ko'rgazmali qurollar, texnika vositalaridan unumli foydalanib o'tishlariga e'tibor jalb qilish;

-kengaytirilgan dars ishlanmalari tuzishga o'rgatish;

-odobnoma mashg'ulotlarini, madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishga yo'naltirish;

-amaliyotchilarning bir-birlari darslarini muntazam kuzatib, kuzatilgan darslarni o'sha kuniyoq tahlil qilishlari, yutuq-kamchiliklarini aytishlari, uslubiy maslahatlar berilishi, zarur yo'l-yo'riqlar ko'rsatilishi uchun sharoit yaratish.

PEDAGOGIK AMALIYOTGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Talabalar pedagogik amaliyotiga quyidagi talablar qo'yiladi:

➤ ona tili va adabiyot fanidan o'qitishning so'nggi usullarini qo'llagan holda mashg'ulotlar olib borish;

- dars ishlanmalari, testlar, mavzuga oid ko'rgazmali va tarqatma materiallar tayyorlay olish, texnika vositalaridan foydalana bilish;
- darslarni pedagogik-didaktik va psixologik bilimlar asosida tahlil qilishni o'rganish, o'quvchilarni fanga qiziqtirish;
- o'quvchilarning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini bilish, o'rganish va sinf jamoasiga psixologik tavsifnoma yozish;
- odobnoma mashg'ulotlarini kuzatish, tarbiyaviy matn tayyorlash va undan dars jarayonida foydalanish;
- sinf rahbarligi faoliyati, tarbiyaviy ish hujjatlari bilan yaqindan tanishish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etish va ota-onalar bilan muloqotda bo'lish;
- o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini o'rganish, tarbiyaning ta'sirchan usullaridan foydalanish, o'quvchilarda kasb-hunar egallashga ishtiyoqni yuzaga keltirish va ularda mustaqil diyorimizga muhabbat, burchga sadoqat, o'zaro hamkorlik, do'stlik kabi ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ularni vujudga keltirish. Sinfdan tashqari turli tadbirlar o'tkazish;
- kutubxonaga o'quvchilarning qatnashuvini ta'minlash va ularni qiziqtirish;
- o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash tizimini, ota-onalar yig'ilishlarini o'tkazish uslublarini o'rganish;
- ta'lim muassasasidagi navbatchilikni kuzatish va bu jarayonda ishtirok etish.

AMALIYOT DAVRIDAGI O'QUV ISHLARI

Pedagogik amaliyot davrida bajarilishi zarur bo'lgan o'quv ishlari quyidagilardan iborat:

- ta'lim muassasasidagi o'quv-tarbiyaviy ishlar tizimini o'rganish;

- ta'lim va tarbiya birligi tamoyilini amalda qo'llashga o'rganish;
- darsni ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi jarayon sifatida shakllantirish va o'quv materialini mazmunidagi asosiy tushunchalarni ajrata olishni o'rganish;
- fanlar bo'yicha sinfdan tashqari ishlar tizimi orqali kasbiy-pedagogik malakalarni egallash;
- o'quvchilarga yakka holda yondashish ko'nikma va malakasini o'zida shakllantirishni nazarda tutgan holda o'zlashtirishi zaif, kuchli iqtidorli va xulqi har xil o'quvchilar bilan ishlashning yo'l va usullarini o'rganish;
- ta'lim muassasasidagi tajribali o'qituvchilarning darslarini kuzatish va unga baho bera olish;
- pedagogik mahorat, etika, nutq madaniyatidan egallangan nazariy bilimlarni dars jarayonida tatbiq qila bilish;
- pedagogik texnologiyalardan, dars o'tishning noan'anaviy usullaridan, texnika vositalaridan samarali foydalana olish;
- dars ishlanmalarini tuzish, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar tayyorlashga o'rganish;
- sinf hujjatlarini (jurnal, o'quvchi shaxsiga oid hujjatlar)ni to'ldirish bilan tanishish;
- boshqa talabalar darsini kuzatish va tahlil qila bilish;
- muayyan ilmiy-uslubiy muammolarni fan o'qituvchilarining va o'quv-tarbiya muassasasining ilg'or pedagogik tajribaga ega vakillari maslahatlari asosida hal etishga o'rganish;
- ona tili va adabiyot fani o'qituvchilariga o'quv xonalarini darsga tayyorlash va darsni o'tkazishda yordam berish;
- ta'lim muassasasi ichki tartib-qoidalariga so'zsiz rioya etish.

AMALIYOT DAVRIDAGI TARBIYAVIY ISHLAR

Pedagogik amaliyot mobaynida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar quyidagilardan iborat:

- o'quv-tarbiya muassasasida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish bilan tanishish va uni tashkil etishning uslubiy asoslarini egallash;
- o'quv-tarbiya muassasasidagi ijodiy faoliyat tizimini o'rganish;
- sinf rahbarining ish rejasi bilan yaqindan tanishish;
- tarbiyaviy ishlarni o'quvchilarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil olib borish malakasini shakllantirish;
- sinf o'quvchilarining ma'naviy qiyofalarini o'rganish maqsadida yakka tartibda suhbatlar olib borish;
- sinfda tarbiyaviy soatlarni o'tkazish orqali o'quvchilarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash, ular ongida milliy mafkurani shakllantirishni maqsad sifatida belgilash;
- guruh «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati raisiga tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va tashkil etishda yordam berish;
- ona tili va adabiyotdan past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga muntazam ravishda yordam berish;
- tarbiyasi qiyin bo'lgan o'quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlashish;
- psixologik-pedagogik uslublar yordamida o'quvchilarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, tavsifnomalar yozish;
- o'quvchilar ota-onalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida ular bilan doimiy muloqot o'rnatish, farzandlarining o'qishi, tarbiyasi, xulq-atvori xususida suhbatlashib turish.

PEDAGOGIK AMALIYOTNI TASHKIL

ETISH VA O'TKAZISH

Fakultet miqyosida pedagogik amaliyotni fakultet dekani mutaxassislik kafedrasi bilan hamkorlikda tashkil qiladi. Amaliyotning guruh rahbari dekanat

yoki kafedra tomonidan tasdiqlanadi. Amaliyotga rahbarlik qiluvchi shaxs amaliyot o'tkaziladigan ta'lim muassasa bilan oldindan shartnoma tuzadi. Imzolangan shartnomada tomonlarning majburiyatlari, vazifalar, amaliyotni o'tkazish muddati aniq ko'rsatiladi.

Guruh amaliyot rahbari kafedradagi uslubiyatchi o'qituvchilar bilan birgalikda pedagogik faoliyat boshlanishidan oldin muqaddima anjuman o'tkazadi. Unda talabalarga pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari, tartibi, bu jarayonda amaliyotchilarning majburiyatlari tushuntiriladi.

Talabalar pedagogik amaliyot oldidan guruh rahbari boshchiligida ana shu davr davomida bajaradigan ishlari rejalarini tuzib oladi, unda o'quv, sinfdan tashqari mashg'ulotlar, sinf rahbarligiga oid tadbirlarning, shuningdek, o'quvchilarni pedagogik-psixologik o'rganishning hajmi va mazmuni belgilanadi.

Amaliyotchi talabalar o'quv-tarbiyaviy ishlarni olib borishlari uchun sinflarga biriktirib qo'yiladi, ular o'qituvchi, sinf rahbarlarining yordamchilari vazifasini bajaradi. Bundan tashqari amaliyotchilar o'z fanlari bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni amalga oshiradi.

Talabalar pedagogik amaliyot davrida sinov darslarini o'tadi, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshiradi, ularni muhokama qilishda bevosita ishtirok etadi. Sinov darslari va tadbirlarning miqdori pedagogik amaliyotning dasturi va ularni o'tkazish jadvalida belgilanadi.

Amaliyot o'tkaziladigan ta'lim muassasa jamoasi talabalarning pedagogik faoliyatga moslashuvini ta'minlashga javobgar hisoblanadi. Ular amaliyotchilarga yetarli darajada sharoit yaratib berishlari zarur.

Pedagogik amaliyot yakuni anjuman bilan tugaydi va unda amaliyotga doir mulohaza, takliflar haqida so'z boradi.

Oliy ta'lim tizimida pedagogik amaliyotni tashkil etish va o'tkazish jarayonida amaliyotchi talabalarga qo'yiladigan barcha talablar oldindan

ma'lum qilinib, o'quv-tarbiyaviy amaliyot 4-kursda (8 hafta davomida) o'tkaziladi.

AMALIYOTCHILARNING MAJBURIYATLARI

Amaliyotchi talaba amaliyot dasturida belgilangan barcha turdagi ishlarni o'z vaqtida bajarishi, o'quv-tarbiya jarayonini uyg'un holda olib borishi, ta'lim berish bilan birga o'quvchilar orasida aqliy, axloqiy, estetik tarbiya masalasiga alohida e'tibor berishi lozim.

Talaba amaliyot davrida o'zining ijobiy xislatlarini namoyon qila olishi, ma'naviy va axloqiy sifatlarni mujassamlashtirgan yetuk mutaxassis, pedagogik faoliyatga, o'quvchilarga, kasbiga chuqur muhabbat bilan qaraydigan inson sifatida o'zini ko'rsata bilishi, o'quv-tarbiya muassasa jamoasi ishlarida faol ishtirok etishi zarur.

Amaliyotchilar amaliyot davomida vujudga keladigan barcha muammoli masalalar yuzasidan guruh amaliyot rahbariga, o'quv-tarbiya muassasasi ma'muriyatiga va uslubiyatchi o'qituvchilarga murojaat qilishlari, o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish, amaliyotni tashkil etishga oid takliflar kiritishlari, anjuman va majlislarda qatnashishlari, muassasadagi kutubxona, sinf xonalaridagi o'quv-uslubiy adabiyotlardan foydalanishlari mumkin.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir amaliyotchi talaba pedagogik faoliyat uchun belgilangan muddat orasida maxsus fan bo'yicha eng kamida 10-12 soat hamda 6 soat tarbiyaviy dars o'tkazishlari talab qilinadi. Shuningdek, talaba amaliyotning nafaol davrida 6 soat fan o'qituvchisining, faol davrida esa 24 soat boshqa amaliyotchi talabalarning darslarini kuzatib, tahlil daftariga qayd qilib qo'yishi lozim.

Pedagogik amaliyot davrida amaliyotchilar umumta'lim maktabi, litsey yoki kasb-hunar kolleji pedagogik jamoasining a'zosi hisoblanadi. Ular shu vaqt mobaynida ta'lim muassasasi farmoyishlari, ichki va tashqi qoidalarga qat'iy bo'ysunishlari shart. Mabodo ma'muriyat tomonidan belgilab qo'yilgan talablar

amaliyotchi talaba tomonidan buzilsa, u amaliyotdan chetlashtirilishi mumkin. Bu haqida maxsus xat orqali kafedraga yoki oliy ta'lim muassasasi amaliyot bo'limiga xabar yetkaziladi. Shuningdek, amaliyotchilar ta'lim muassasasida sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilishlari; maktab, litsey yoki kasb-hunar kollejidagi o'zi foydalangan asbob-uskunalarni, kitob va boshqa buyumlarni xuddi o'zining mulki singari avaylab-asrashlari; yong'in xavfini oldini olish qoidalariga bo'ysungan holda elektr asboblardan ehtiyotkorlik bilan foydalanishlari; biror buyumni ruxsatsiz olib chiqib ketishga harakat qilmasliklari; ta'lim muassasa jamoasi bilan iliq munosabatni qaror toptirishlari talab etiladi. Amaliyot yakuniga yetgach, amaliyotchi talaba u yerda faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarga, xodimlarga o'z minnatdorchiligini bildirishlari kerak.

AMALIYOTCHI TALABA KUNDALIGI

Har bir amaliyotchi talaba amaliyot davomida o'zining kundalik ishlarini qayd qilib borishi uchun "Kundalik-hisobot" daftari tutishi zarur. Kundalik - amaliyotchi talabaning asosiy hujjati sanaladi. Chunki amaliyotchining kundalik kuzatishlari, o'quvchilar bilan olib borgan o'quv-tarbiyaviy ishlari, umuman, butun pedagogik faoliyati kundalik daftarda yoritib borilishi kerak. Har kungi pedagogik jarayonlarni kundalikda yoritilganligi amaliyotchining o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashayotganligidan darak beradi. Kundalik daftar hamisha talabaning boshqa hujjatlari orasida bo'lishi shart.

Kundalikda talabaning butun amaliyot davridagi ish faoliyati aks etadi. Kundalikning to'g'ri va belgilangan talablar asosida yuritilishi uchun talaba amaliyot davomida o'z ishlarini mustaqil holda rejalashtirib, uning natijalarini tahlil qila olish darajasiga ega bo'lishi kerak.

Amaliyotchi dars o'tishi yoki o'tmasligidan qat'iy nazar har kuni darslar boshlanishidan kamida 10 daqiqa oldin ta'lim muassasasida hozir bo'lishi lozim. U o'quv-tarbiya ishlarini amalga oshirib, keyingi kundagi ishlari rejasini tuzadi.

Talaba kunlik rejasidagi 6 soatlik bajargan ishlarini kundalik daftariga aniq, tushunarli tarzda qayd qilib boradi. Dars o'tish rejasi, kun davomida bajarilgan ishlar, taklif va mulohazalar, darsni o'tganligi haqida bildirilgan ko'rsatmalar kundalikda aks etishi kerak.

Kundalikning dastlabki sahifasida ta'lim muassasa rahbari, o'quv va tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari, amaliyot bo'yicha guruh rahbarining ism-sharifi ko'rsatiladi. Amaliyotchi talabaning kundalik hisoboti nihoyat darajada tartibli qilib qo'lda yozilishi, namunali yuritilishi bilan birga unda amalga oshirilgan ishlar, o'tilgan darslarning tahlili, uslubiy maslahatlar, sinfdan tashqari ishlar (fan to'garagi, kechalar)ning mazmuni to'laqonli yoritilishi zarur.

Kundalik haftada bir marotaba guruh amaliyot rahbari tomonidan nazorat qilinadi. U hisobotga qo'shib kafedraga taqdim etiladi. Kundaliksiz hisobotning himoyaga qo'yilishi nojoizdir.

GURUH RAHBARINING VAZIFALARI

Pedagogik amaliyotning guruh rahbari amaliyot o'tkaziladigan ta'lim muassasa bilan shartnoma imzolanishiga mas'uldir. U amaliyot dasturi, ko'zda tutilgan vazifalardan umumta'lim maktabi, litsey yoki kasb-hunar kolleji rahbariyatini xabardor qiladi. Malakali kadrlar tayyorlashda ular zimmasida ham mas'uliyatli vazifa turganligini tushuntiradi. Shuningdek, guruh rahbari quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishi zarur:

- amaliyot bo'yicha dastlabki va yakuniy anjuman tashkil etadi;
- amaliyot davrida sinf rahbarlari va uslubiyatchi o'qituvchilar faoliyatini muttasil kuzatib boradi, zarur o'rinlarda tegishli maslahatlarini beradi;
- amaliyot o'tkazilayotgan joydagi ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarni kuzatadi;
- kafedra mudiri, fakultet dekanini, oliy ta'lim muassasasi amaliyot rahbarini tadbirlarda ishtirok etishini ta'minlaydi;

-pedagogik amaliyotning o'z vaqtida boshlanishi va yakunlanishiga erishishi nazarda tutadi;

-amaliyotni hozirgi zamon talablariga muvofiq fan va texnika yutuqlari, kompyuter, yangi axborot hamda pedagogik texnologiyalar asosida o'tkazilishini ta'minlaydi va uni nazorat qiladi;

-o'quvchilar va amaliyotchilar davomatidan doimo boxabar bo'ladi;

-pedagogik amaliyot burchagiga uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqadi;

-o'quv-tarbiya muassasasi rahbari bilan hamkorlikda talabalarni sinflarga (guruhlariga) va o'qituvchilarga biriktiradi, fan o'qituvchisi bilan birga dars mavzularini, sinfdan tashqari mashg'ulotlarni amaliyotchi talabalarga rejalashtiradi;

- pedagogika kafedrası o'qituvchilari bilan birga amaliyot davri uchun yagona reja tuzishda talabalarga yordam beradi, amaliyot dasturiga muvofiq o'quv ishlari hamda sinfdan tashqari bajariladigan mashg'ulotlarni rejalashtiradi;

- fanni o'qitish va sinfdan tashqari bajariladigan mashg'ulotlar bo'yicha talabalarga maslahatlar beradi, ularning shaxsiy ish rejasi va konspektlarini tekshiradi hamda tasdiqlaydi, talabalarning sinfdan tashqari mashg'ulotlariga va darslariga qatnashadi, ularni muhokama qiladi va baholaydi, talabalar ish rejalarining bajarilishi ustidan nazorat qiladi;

-nafaol amaliyot davrida talabalar bilan birga o'quv muassasasi o'qituvchilarining darslarini kuzatadi, ularni tahlil qiladi;

-uslubiyatchi o'qituvchilar bilan birga darslar jadvali, o'tkazilishi lozim bo'lgan tadbirlar rejasini tuzadi;

-talabalar bilan hamkorlikda ta'lim muassasasida amaliyot burchagini tashkil qiladi, ochiq darslar jadvalini ishlab chiqadi hamda ular nazoratini yo'lga qo'yadi;

-amaliyot davrida o'z vazifasiga sovuqqonlik bilan qaragan uslubiyatchilarni ogohlantiradi, amaliyotga qatnashmayotgan talabalarni tartibga chaqiradi, ularga nisbatan jazolash choralarini ko'radi;

-oliy ta'lim muassasasi amaliyot rahbari bilan doimiy aloqa o'rnatadi, tashkil etilgan ochiq darslarda ularning ishtirokini ta'minlaydi;

-kafedra mudiri va fakultet dekaniga amaliyotning borishi haqida hamisha hisobot berib boradi;

-ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi ishlarning bajarilishi ustidan nazorat o'rnatadi;

-pedagogik amaliyotga hech bir sababsiz qatnashmayotgan talaba to'g'risida fakultet dekaniga xabar beradi;

- faol amaliyot davrida talabalarga dars o'tishlari uchun maslahatlar beradi hamda ularning darsida ishtirok qiladi; kunning ikkinchi yarmida guruhning barcha talabalari, fan o'qituvchisi bilan shu kuni o'tilgan darslarning muhokamasini uyushtiradi va ballarda baholaydi;

- pedagogik amaliyot bo'yicha o'tkaziladigan tashkiliy muqaddima va yakunlovchi anjumanlarda qatnashadi, uslubiyatchilar hamda pedagogika va psixologiya kafedralari o'qituvchilari bilan hamkorlikda talabalarning amaliyot bo'yicha umumiy reyting balini chiqaradi;

- talabalar tayyorlagan hujjatlarni yig'adi va muhokama qiladi, pedagogik amaliyotning yakuni borasida kafedra, fakultet va oliy ta'lim muassasasi amaliyot rahbariga hisobot tayyorlaydi.

USLUBIYATCHILARNING VAZIFALARI

Pedagogik amaliyot davrida uslubiyatchi o'qituvchilarning majburiyatlari ham kattadir. Amaliyotni bekamu ko'st tashkil etilishi va o'tkazilishi, talabalarning o'z iqtidorini namoyish qila olishidagi asosiy mas'uliyat, avvalo, uslubiyatchi o'qituvchilar zimmasiga tushadi. Uslubiyatchilar e'tiborga olishi lozim bo'lgan jihatlar quyidagilardan iborat:

-o'ziga biriktirilgan talabalar bilan shug'ullanib, dars ishlanmalarini tasdiqlaydi;

-amaliyotchilar darsini kuzatadi va baholaydi;

-darsni hozirgi zamon talablari darajasida o'tkazilishini ta'minlaydi;

-har bir darsning ko'rgazmali qurollar, yangi pedagogik texnologiyalar, texnika vositalari asosida tashkil etilishini e'tiborda saqlaydi;

-amaliyotchilarda o'qituvchilik kasbiga nisbatan muhabbatni shakllantiradi, javobgarlikni his qilish, sinf o'quvchilarini boshqara olish, dars paytida o'zini tuta bilish singari qobiliyatlarni tarbiyalaydi;

-darslarni milliy istiqlol g'oyalari ruhida o'tkazilishini ta'minlaydi;

-talabalar o'tishi lozim bo'lgan ochiq darslar jadvalini o'z muddatida pedagogik amaliyot bo'yicha guruh rahbariga topshiradi;

- amaliyotchilarga dars kuzatish, tahlil qila olish, uni bayonnomalarda aks ettirishga, qaror chiqarishga o'rgatadi;

-amaliyotchilarning har biri bilan iliq munosabatda bo'ladi, ular tomonidan bildirilgan to'g'ri fikrlarni inobatga oladi, noto'g'ri bo'lsa uni asoslab beradi;

-amaliyotchilarning pedagogik faoliyatiga xolisona baho beradi.

SINF RAHBARINING MAJBURIYATLARI

Pedagogik amaliyot davomida ta'lim muassasasidagi sinf rahbar quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- amaliyotchi talabalarni ta'lim muassasasi tarbiyaviy ishlar rejasi bilan tanishtiradi;

- ommaviy-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va o'tkazishda talabalarga yordam beradi;

- amaliyotchilar tashkil qilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda qatnashadi va unga baho beradi;

- amaliyotchi talabalarni sinfdagi o'quvchilar tarkibi, ularning shaxsiy hujjatlari, o'zlashtirishi va davomati, xulq-odobi bilan tanishtiradi;
- pedagogika kafedrası o'qituvchisi hamda amaliyot bo'yicha guruh rahbari bilan birgalikda amaliyot davrida bajarilishi lozim bo'lgan tarbiyaviy ishlar dasturini ishlab chiqadi, uni tasdiqlaydi, bajarilishi yuzasidan maslahatlar beradi va nazorat qiladi;
- psixologiya kafedrası o'qituvchisi bilan hamkorlikda amaliyotchi talabalarining o'quvchilarni o'rganishlariga, ular haqida psixologik-pedagogik tavsifnoma yozishlariga rahbarlik qiladi;
- sinf o'quvchilari bilan olib borilayotgan kundalik tarbiyaviy ishlarga amaliyotchilarni jalb qiladi. Navbatchilikda turish, o'quvchilarning uyiga borish va ota-onalari bilan suhbatlashish uchun imkoniyat yaratadi;
- amaliyotchilarning ma'naviy-ma'rifiy ishlarini kuzatib ularga tavsifnoma beradi.

NOFAOL AMALIYOT DAVRIDAGI ISHLAR

Birinchi haftada

1-kun rejasi

1. Belgilangan ta'lim muassasasi (umumta'lim maktabi, litsey yoki kasb-hunar kolleji)ning rahbarlari bilan tanishish.
2. Ta'lim muassasasining tarixini o'rganish.
3. Ta'lim muassasasidagi o'qituvchilar jamoasi bilan yaqindan tanishish.
4. Pedagogik amaliyot davrida amalga oshirilishi zarur ishlarni rejalashtirish.
5. Fan uchun mo'ljallangan xonalarni ko'zdan kechirish.

2-kun rejasi

1. Biriktirilgan fan o'qituvchilarining rejalarini o'rganish.
2. Biriktirilgan sinf rahbarlarining rejalarini o'rganish.
3. Sinfdagi ilg'or, iqtidorli o'quvchilar bilan suhbat uyushtirish.
4. Tajribali o'qituvchilar darslarini kuzatish.

5. Amaliyotchi talabalar burchagini tashkil qilish ishlari.

3-kun rejasi

1. Sinf jurnallari bilan tanishish.
2. Jurnalni rasmiylashtirish ishlarini o'rganish.
3. Dars kuzatish daftarini tashkil qilish.
4. Tajribali o'qituvchilar darslarini kuzatish.
5. Kuzatilgan darslarni tahlil qilish.

4-kun rejasi

1. Tajribali o'qituvchilar darslarini kuzatish.
2. Kuzatilgan darslarni tahlil qilish.
3. Sinf rahbarlik ishi bilan tanishish.
4. Biriktirilgan sinf o'quvchilari bilan muloqotni tashkil qilish.
5. Uslubiy birlashma ishi bilan tanishish.

5-kun rejasi

1. Fan to'garagi ishlari bilan tanishish.
2. Fan o'qituvchilarining darslarini amaliyotchilar bilan birga kuzatish.
3. Kuzatilgan darslarni tahlil qilish.
4. O'tiladigan mavzuga oid kengaytirilgan dars ishlanmasini tayyorlash.
5. O'tiladigan mavzuga oid ko'rgazmali qurol tayyorlash.

6-kun rejasi

1. Fan o'qituvchilarining darslarini kuzatish.
2. Kuzatilgan darslarni tahlil qilish.
3. O'tiladigan mavzuga oid ko'rgazmali qurol tayyorlash.
4. O'tiladigan mavzuga oid kengaytirilgan dars ishlanmasini tayyorlash.
5. Iqtidorli o'quvchilarni ro'yxatga olish.
6. Iqtidorli o'quvchilarni olimpiadaga tayyorlash uchun yordamlashish.

FAOL AMALIYOT DAVRIDAGI ISHLAR

Ikkinchi haftada

1. Ijodkor o'qituvchilarning darslarini kuzatish.
2. Kengaytirilgan dars ishlanmasini tayyorlash.
3. Dars uchun taqdimot materiallarini hozirlash.
4. Darsga ko'rgazmali qurol tayyorlash.
5. Pedagogik texnologiya asosida darsni o'tish (uslubiyatchi o'qituvchi nazorati ostida).
6. Test materiallari tayyorlash.
7. Sinf rahbariga hujjatlarni yuritishda yordam berish.
8. Iqtidorli o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulot o'tkazish.
9. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulot o'tkazish.
10. To'garak mashg'ulotini olib borish.
11. Odobnoma darsini kuzatish va o'tish.
12. Amaliyotchilarning darslarini kuzatish.
13. Kuzatilgan darslarni tahlil qilish.
14. Navbatchilikda turish.

Uchinchi haftada

1. Tajribali o'qituvchining darsini kuzatish.
2. Amaliyotchilar darslarini kuzatish.
3. Kuzatilgan darslarni tahlil qilish.
4. Kengaytirilgan dars ishlanmasini tayyorlash.
5. Dars uchun taqdimot materiallarini hozirlash.
6. Darsga ko'rgazmali qurol tayyorlash.
7. Interfaol metod qo'llab darsni o'tish (uslubiyatchi o'qituvchi nazorati ostida).
8. Tanlangan mavzu bo'yicha ochiq dars o'tish.
9. Tarqatma materiallarni tayyorlash.
10. Odobnoma darsini kuzatish va o'tish (sinf rahbari nazorati ostida).
11. To'garak ishlarini olib borish.
12. Ota-onalar bilan suhbatlashish.

13. Navbatchilikda turish.

To'rtinchi haftada

1. Ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etish.
2. Uslubiyatchi o'qituvchilar ishtirokida amaliyotchi talaba o'tgan dars muhokamasida qatnashish.
3. Interfaol metod asosida darsni o'tish va dars kuzatish.
4. Uslubiy birlashma ishida qatnashish.
5. Odoynoma darsini o'tish.
6. Dars uchun taqdimot materiallarini hozirlash.
7. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati faoliyatini o'rganish.
8. To'garak ishlarini yuritish.
9. Ota-onalar bilan suhbat uyushtirish.
10. Shoir yoki yozuvchilarning tavalludiga bag'ishlab tadbir tashkil etish.
11. Ochiq darslar tahlili.
12. Navbatchilikda turish.
13. Sinf rahbari ishlarini yuritish.

Beshinchi haftada

1. Dars ishlanmasi, ko'rgazma tayyorlash.
2. Uslubiyatchi o'qituvchilar bilan amaliyotchi talaba o'tgan dars muhokamasida ishtirok etish.
3. Interfaol metoddan foydalanib darsni o'tish va dars kuzatish.
4. Uslubiy birlashma ishida qatnashish.
5. Dars uchun taqdimot materiallarini hozirlash.
6. Odoynoma darsini o'tish.
7. Ochiq dars o'tish.
8. To'garak ishlarini yuritish.
9. Ota-onalar bilan suhbatlashish.
10. Shoir yoki yozuvchilarning tavalludi munosabati bilan tadbir tashkil etish.
11. Ochiq darslar tahlili.

12. Navbatchilikda turish.
13. Sinf rahbari ishlarini yuritish.

Oltinchi haftada

1. Belgilangan mavzuda matn tayyorlash va o'quvchilar bilan suhbat-munozara o'tkazish.
2. Interfaol metod qo'llab darsni o'tish, dars kuzatish.
3. Dars ishlanmasi va didaktik materiallar tayyorlash.
4. Dars uchun taqdimot materiallarini hozirlash.
5. Ochiq dars o'tish.
6. Badiiy kecha tayyorlash va o'tkazishda faol ishtirok etish.
7. To'garak ishlarini olib borish.
8. Ochiq darslar tahlili.
9. Pedagogik amaliyot hujjatlarini rasmiylashtirish.
10. Ta'lim muassasasi pedagogik yig'ilishida ishtirok etish.
11. Yakuniy anjumanga tayyorgarlik.

Yettinchi haftada

1. Innovatsion texnologiya asosida darsni o'tish.
2. Sinf dan tashqari ishlarni amalga oshirish.
3. O'qituvchilarning o'qitish usullarini o'rganish.
4. Dars uchun taqdimot materiallarini hozirlash.
5. Darslarga ilmiy, uslubiy va tarbiyaviy jihatdan yondashish.
6. Amaliyot davrida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish.
7. Sinf rahbari vazifasini bajarish.
8. Sinf soatlarini o'tkazish.
9. Pedagogik-psixologik izlanishlar olib borish.
10. O'qituvchilarning tarbiyaviy usullarini o'rganish.
11. Dars tahlilida qatnashish.
12. Pedagogik amaliyot hujjatlarini rasmiylashtirish ishlari.

Sakkizinchi haftada

1. Darsga ko'rgazmali qurol tayyorlash.
2. Interfaol metodni tatbiq qilib darsni o'tish (uslubiyatchi o'qituvchi nazorati ostida).
3. Iqtidorli o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar olib borish.
4. O'zlashtirishi bo'sh o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulot o'tkazish.
5. Kuzatilgan darslarni tahlil qilish.
6. Odobnoma darsini o'tish.
7. To'garak ishlarini olib borish.
8. Ota-onalar yig'ilishida ishtirok etish.
9. Test materiallarini tayyorlash.
10. Sinf rahbari ishlarini yuritish.
11. Pedagogik amaliyot hujjatlarini rasmiylashtirish.
12. Amaliyot o'taganlik haqidagi ma'lumotnomani olish.
13. Yakuniy anjumanga tayyorgarlik ko'rish.
14. Amaliyot hisobotini tayyorlash va rasmiylashtirish.

AMALIYOTCHI TALABA HISOBOTI

Pedagogik amaliyot yakunida talaba amalga oshirgan ishlari haqida yozma ravishda hisobot tayyorlaydi. Hisobot belgilangan muddatda topshirilishi shart (amaliyot tugagach 5 kun oralig'ida).

Talabaning amaliyotni o'taganligiga doir hisoboti bevosita amaliyot obyektidan tayinlangan rahbar imzolagan kundalik daftar bilan birga oliy ta'lim muassasasidan tayinlangan guruh rahbariga topshiriladi.

Hisobot talabaning amaliyot davrida bajargan ishlari to'g'risida ma'lumotlar, xulosa va takliflarni o'z ichiga olishi lozim. U amaliyot o'tkazilgan ta'lim muassasa rahbari tomonidan imzolanib muhr bilan tasdiqlangan bo'lishi zarur. Hisobotni tayyorlashda talaba uchun kundalik daftari qo'l keladi. Shunga

ko'ra kundalikda amaliyotchilarning o'tgan maxsus darslari va darsdan tashqari amalga oshirgan ishlari, kuzatishlari batafsil yoritilsa, ayni muddaodir.

Hisobotda ta'lim muassasasining tarixi, o'qituvchilar jamoasi, amaliyotchining o'quv-tarbiyaviy ishlari, o'tilgan dars soatlari, sinfdan tashqari o'tgan mashg'ulotlar, tadbirlar rejasi, o'quvchilarga qo'ygan reyting ballari haqidagi ma'lumotlar aks etishi kerak. Shuningdek, amaliyotchi talaba oliy ta'lim muassasasida olgan nazariy bilimlarini pedagogik amaliyot davrida qay darajada qo'llay olganligini, o'zi qanday yangiliklarni tatbiq etganligini, unga ro'baro' kelgan muammolar, ularni bartaraf etish uchun qilgan ishlari xususidagi taklif va mulohazalarini hisobotda havola etishi maqsadga muvofiq.

Amaliyot yakunida talaba o'z hisobotini oliy ta'lim muassasasi tomonidan tayinlangan komissiya oldida himoya qiladi. Komissiya tarkibiga o'tilayotgan amaliyot fanini olib boruvchi o'qituvchi, oliy ta'lim muassasasi tomonidan birlashtirilgan guruh rahbari va imkoni bo'lsa, amaliyot obyektidan tayinlangan rahbar ham kiritiladi.

Oliy ta'lim muassasasi va fakultet ilmiy kengashida amaliyotning natijalariga yakun yasaladi. Pedagogik amaliyot natijasi talabaning kursdan kursga o'tishi va stipendiya belgilanishida hisobga olinadi.

Amaliyot dasturini bajarmagan, ishi haqida qoniqarsiz taqriz yoki hisobot himoyasida qoniqarsiz baho olgan talaba ta'vil vaqtida o'z hisobidan qayta amaliyot o'tashga jo'natiladi. Ba'zi hollarda bunday talabaning kelgusida oliy ta'lim muassasasida o'qishi mumkinligi masalasi rektor tomonidan ko'rib chiqiladi.

AMALIYOTGA DOIR TALAB QILINADIGAN

HUJJATLAR

Pedagogik amaliyot oxirida amaliyotchilarning reyting ballarini hisoblash uchun ular tomonidan amalga oshirilgan ishlarni tasdiqlovchi quyidagi hujjatlar bo'lishi zarur:

- yillik o'quv ish rejasi (1 ta);
- tarbiyaviy ishlar rejasi (1 ta);
- o'tkazilgan tarbiyaviy soatlar bayonnomalari (6 ta);
- dars tahlili, tahlil daftarida (30 ta);
- dars ishlanmalari (30 ta);
- kundalik daftar (1 ta);
- ikki soatlik namunali ochiq dars ishlanmasi (2 ta);
- fan bo'yicha o'tilgan dars bayonnomalari (10 ta);
- darslarda qo'llanilgan taqdimot materiallari (10 ta);
- katta ko'rgazma (2 ta, bittasi ona tiliga, bittasi adabiyotga doir);
- kichik ko'rgazma (4 ta, ikkitasi ona tilidan, ikkitasi adabiyotdan);
- shoir va yozuvchilar hayoti, ijodiga oid albom (1 ta);
- amaliyot o'tganligi haqida ma'lumotnoma (ta'lim muassasa rahbari tomonidan beriladi) (1 ta);
- tavsifnoma (sinf rahbari yoki fan o'qituvchisidan, 1 ta);
- pedagogik kengash qaroridan ko'chirma (1 ta);
- namunali ochiq darsning video tasviri tushirilgan SD disk (1 ta);
- hisobot (umumlashtirilgan hujjat) (1 ta).

AMALIYOTCHILAR FAOLIYATINI BAHOLASH

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 25-avgustdagi 333-sonli buyrug'i bilan «Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida»gi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. Talabalarning pedagogik amaliyot jarayonidagi faoliyatini baholash shunga muvofiq holda amalga oshiriladi:

-86-100 ball – «a'lo» bahosi. Pedagogik amaliyotning faol va nafaol davrida hamisha ishtirok etgan, ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalariga bo'ysunishni majburiyati deb bilgan, amaliyot o'tkazilgan vaqtdan samarali

foydalangan holda o'zining kelgusi pedagogik faoliyati uchun zarur ma'lumotlarni to'plashga muvaffaq bo'lgan, oldiga qo'ygan vazifalarni sidqidildan ado etgan amaliyotchi talabalarga qo'yiladi;

-71-85 ball – «yaxshi» bahosi. Pedagogik amaliyot davridagi majburiyatlarni bajarish jarayonida jiddiy bo'lmasa-da, nuqsonlari ko'zga tashlanuvchi, zimmasidagi mas'uliyat hissini sezsa-da, topshiriqlardan ayrimlarini bajarishni uddalay olmagan, to'plagan hujjatlarida ba'zi kamchiliklar uchragan, amaliyotga sababsiz qatnashmagan kunlari ham bo'lgan amaliyotchi talabalarga qo'yiladi;

-55-70 ball – «qoniqarli» bahosi. Pedagogik amaliyotdan ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarga jiddiy e'tibor jalb qilmagan, ma'lumotlarni yig'ishga befarq qaragan, ta'lim muassasasidagi qoidalarga bepisandlik bilan munosabatda bo'lgan, o'z majburiyatlarini to'liq uddalay olmagan, amaliyotning yarmidan ortiq davridagina ishtirok etgan amaliyotchi talabalarga qo'yiladi;

-0-54 ball – «qoniqarsiz» bahosi. Pedagogik amaliyotga loqaydlik bilan qaragan, mas'uliyatsiz munosabatda bo'lgan yoki umuman amaliyotning ta'lim-tarbiyaviy jarayonlariga qatnashmagan, amaliyot o'tkazilayotgan joyda ichki tartib-qoidalarga rioya qilmasdan, bir-necha marotaba ogohlantirilgan, taqdim qilinishi zarur hujjatlarga ega bo'lmagan amaliyotchi talabalarga qo'yiladi.

PEDAGOGIK AMALIYOTNI BAHOLASHNING MEZONI

1. Interfaol usullar asosida dars o'tish **(20 ball)**.
2. Fan o'qituvchisining darsini kuzatish **(10 ball)**.
3. Amaliyotchi talabalar darsini kuzatish, tahlil qilish **(10 ball)**.
4. Dars uchun tayyorlangan taqdimot materiallari **(15 ball)**.
5. Darsning ko'rgazmali qurol, tarqatma materiallar bilan ta'minlanganligi **(15 ball)**.
6. Sinf soatini o'tkazish **(10 ball)**.
7. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil qilish **(10 ball)**.
8. Pedagogik amaliyotga oid boshqa hujjatlarning mavjudligi, rasmiylashtirilishi (kundalik, o'quv, tarbiyaviy ish rejalari, dars bayonnomalari, dars tahlili daftari, dars ishlanmalari, hisobot, ta'lim muassasasidan olingan ma'lumotnoma, tavsifnoma, pedagogik kengash qaroridan ko'chirma) **(10 ball)**.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –Toshkent: O'zbekiston, 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Bo'ronov M., Qurbaniyazov G. Pedagogik amaliyot – ixtisoslik kamoloti. –Nukus, 1994.
4. Bo'ronov M. O'zbek tili o'qitish metodikasining ba'zi masalalari. – Nukus, 1995.
5. Bo'ronov M. O'quvchilar nutqini o'stirishda badiiy matnlardan foydalanish usullari. –Nukus, 1997.
6. Mirzaqulov T. Grammatika o'qitishning lingvistik asoslari. –Toshkent, 1994.
7. Mahmudov N va boshqalar. Ona tili. 7-sinf uchun darslik. –Toshkent, 2005.
8. Mahmudov N va boshqalar. 9-sinf uchun darslik. –Toshkent, 2009.
9. Ne'matov H., G'ulomov A., Qodirov M., Abdurahimova M. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. –Toshkent, 2009.
10. Orziqulov A., Mirzaolimov R. Pedagogik amaliyotni o'tash bo'yicha metodik tavsiyalar. –Namangan, 2006.
11. Primov A. O'zbek filologiyasi ta'lim yo'nalishi talabalarining pedagogik amaliyotini o'tkazish. –Urganch, 2011.
12. Turg'unov S. Pedagogik amaliyot o'tkazish bo'yicha uslubiy ko'rsatma. –Namangan, 2000.
13. Toshpo'latova Sh. Pedagogik malakaviy amaliyotni tashkil etish metodikasi. –Toshkent, 2005.
14. Ta'lim taraqqiyoti. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi Vazirligining axborotnomasi. –Toshkent, 1999. –4-maxsus son.
15. G'ulomov A. O'zbek tili o'qitish metodikasining asosiy prinsiplari. –Toshkent, 1995.

MUNDARIJA

So‘zboshi.....	3-4
Pedagogik amaliyotning maqsadi.	5-6
Pedagogik amaliyotga qo‘yiladigan talablar.....	6-7
Amaliyot davridagi o‘quv ishlari.....	7-8
Amaliyot davridagi tarbiyaviy ishlar.....	9
Pedagogik amaliyotni tashkil etish va o‘tkazish.....	9-11
Amaliyotchilarning majburiyatlari.....	11-12
Amaliyotchi talaba kundaligi.....	12-13
Guruh rahbarining vazifalari.....	13-15
Uslubiyatchilarning vazifalari.....	15-16
Sinf rahbarining majburiyatlari.....	16-17
Nofaol amaliyot davridagi ishlar.....	17-18
Faol amaliyot davridagi ishlar.....	18-22
Amaliyotchi talaba hisoboti.....	22-23
Amaliyotga doir talab qilinadigan hujjatlar.....	23-24
Amaliyotchilar faoliyatini baholash.....	24-25
Pedagogik amaliyotni baholashning mezoni.....	25
Foydalanilgan adabiyotlar.....	26